

HILPIRA BAYROG'IM - HILPIRA MAG'RUR

Mirzayeva Nigora Xayrullayevna

Surxondaryo viloyati Denov tumani 11-IMI va 53-maktab

Tasviriy san'at va chizmachilik fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'i haqida ma'lumot berilgan bo'lib uning ramziyligi va rasmiyligi haqida tushunchalar berilgan.

Kalit so'zlar: bayroq, mustaqillik, milliylik, Davlat Bayrog'i to'g'risidagi qonun

Har qanday davlat suverentlik maqomiga ega bo'lishi uchun uning muqaddas timsollari, bayrog'i, madhiyasi, gerbi va milliy valyutasi bo'lishi lozim. Bu muqaddas timsollar davlatning milliy bayramlarida, davlatlararo yuqori martabali tashriflarda, shuningdek, mamlakat sportchilari xalqaro musobaqalarida g'oliblik shohsupasiga chiqqanlarida ko'tariladi, yangraydi.

O'zbekistonimizning muqaddas timsollaridan uning Bayrog'i va Davlat Gerbi mamlakatimizning rasmiy dargohlarida ham doim o'rnatilgan bo'ladi. Davlat ramzlarini hurmat qilmay turib biz xalqimizning millat sifatidagi o'rni O'zbekistonning butun jahon mamlakatlaridan biri ekanligini idrok qila olmaymiz. Shuning uchun doim yurtimiz bayrog'i baland ko'tarilib, ko'rinish bilan hilpirab tursin...

Ona-diyorimizning eng yangi tarixi 1991-yil 1-sentabrdan boshlanadi. Shu davrdan mamlakatimizda bozor iqtisodiyotiga asoslangan huquqiy demokratik davlatga asos solindi. Biz ham jahondagi yuksak rivojlangan davlatlar singari, bozor munosabatlariga o'ta boshladik. Nufuzli xalqaro tashkilotlar-Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Xalqaro valyuta fondiga a'zo bo'ldik. Xalqimiz o'z salohiyatini namoyon eta boshladi. Mamlakatimiz chet el iqtisodiyotiga yo'l ochib qo'yildi. Vatanimizga xorijdan ko'plab tadbirkorlar, ishbilarmonlar kelib, investitsiya qo'ya boshlashdi. Natijada tez orada mamlakatimiz iqtisodiyoti mustahkamlanib, respublikamiz birinchi Prezidenti Islom Karimov aytganlaridek, buyuk davlatga aylanadi. Har bir mustaqil davlatning o'z alohida ramzi-bayrog'i bo'lishi qadimdan qonun tusini olgan. Kattami-kichikmi barcha mustaqil davlatlar, saltanatlarning o'z bayrog'i bo'lgan. Davlat bayrog'i va uning ramzi bugungi O'zbekiston sarhadida qadimda mavjud bo'lgan davlatlar bilan tarixan bog'liqlikni anglatadi. Davlatimiz mustaqilligi, milliyligini anglatib turadi...

Ko'z surtgay buyugim, hoki pojingga,

Shohsupa sahnidan bo'ylagay Bayroq

Dunyoga mashalsan turgan joyingda,

Fuqaro yo'q axir mendan ham boyroq.

Men uchun Vatan bu moviy osmondir,

Gullagan chamadir go'zal bo'stondir.

Bayrog'ini o'pib maqtansam arzir

Nomi ham jarangdor o'zbekistondir.

O`zbekiston Respublikasi Davlat Bayrog`i to`g`risidagi qonun 1991-yil 18-noyabrdan O`zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari o`tkazilgan VII-sessiyasida qabul qilingan. Davlat bayrog`i va uning ramzi bugungi O`zbekiston sarhadida qadimda mavjud bo`lgan davlatlar bilan milliy ma`daniy aloqalari ,an`analarini o`zida mujassamlashtiradi. Agar siz bayrog`imiz bilan sirlashmoqchi bo`sangiz, undagi ranglarni tabiatdan izlang. Bularni o`quvchilar ishtirokida tomosha qilamiz...



O`zbekiston Respublikasi Davlat Bayrog`i to`g`risidagi qonuni 1-moddasida: O`zbekiston Respublikasi Davlat Bayrog`ining sxematik va rangli tasviri tasdiqlangan. Bayrog`imiz va unda aks etgan ramzlar qadimiy tarix bilan bog`liq bo`lgan milliy-madaniy an`analarni o`zida aks ettirgandir. Bayroqda aks etgan moviy rang – musaffo osmon va obi-hayot ramzidir. Timsollarda bu yaxshilik, donishmandlik, shon-shuhrat, buyuklik va halollilikni anglatadi. Sohibqiron Amir Temur bobomizning davlat bayrog`i ham moviy rangda bo`lgan. Bayrog`imizdagi oq rang – muqaddas tinchlik ramzi bo`lib, u nurafshon kun va koinot yoritgichlari bilan uyg'unlashib ketgan – poklik, beg'uborlik, orzular nurafshonligi va go'zallikka intilish timsolidir. Yashil rang esa – tabiatning yangilanish, yasharish ramzi hisoblanadi. Ushbu rang ko`pgina xalqlarda navqironlik, kelajak va hayotga umid, go'zallik va shodumonlik timsoli sanaladi. Bayroqdagi qizil chiziqlar tomirlarimizda jo'shib oqayotgan jonbaxsh irmoqlardir. Yarim oy tasviri bizning tarixiy an'ana-yu milliy qadriyatlarimiz bilan bog`liqdir. Shuningdek, qo'lga kiritgan mustaqilligimiz ramzi hisoblanadi. Bayrog`imizda 12 yulduzning aks etishi ham o`z ramziy ma`nosiga egadir. Bu birinchidan, quyosh yilnomamizga daxldorligini bildirsa, ikkinchidan, bizning ilm-ma'rifatda dunyoga yuz tutgan daholarga beshik bo`lgan buyuk davlatimizda «Nujum ilmi» taraqqiy etganligi, bunda Mirzo Ulug`bek, Abu Rayhon Beruniy kabi ulug` allomalarimizning butun dunyo tan olgan ulkan kashfiyotlari bilan ham izohlanadi. Shuningdek, bu muborak tuproqda o`zbek xalqi madaniyati qadim-qadimga borib taqalishidan ham darak beradi. O'n ikki yulduz baxt-saodat, kamolotga intilish ramziga ishoradir, desak xato qilmagan bo`lamiz.

Ranglar jilosida baxt va osoyishtalik ulashib hilpirayotgan milliy bayrog`imizga ko`zimiz tushganda, uni faxr bilan ko`kka ko'targanimizda butun vujudimiz hayajonga, faxru iftixorga to`ladi. Istiqlolimiz, baxt-iqbolimiz ramzi bo`lgan milliy bayrog`imizni sevib qadrlamagan kishi topilmasa kerak.

Yuksalish va rivojlanish sari dadil hilpirayotgan, xoh osmono'par binolar peshtoqida bo'lsin, xoh ish stoli ustida viqor to'kib turgan Davlat bayrog'i o'zida milliy-madaniy an'analarni mujassam etgani shundoqqina aks etadi. Bayroqdagi moviy rang mangu osmon va obi hayot ramzi bo'lib, tiriklik mazmuni, yaxshilik, donishmandlik, shon-shuhurat va sadoqatdan ma'no beradi. Tinchlik, poklik, beg'uborlik darakchisi bo'lgan oq rangning uyg'unlashuvi ajib bir go'zallik kashf etayotgan bo'lsa, yashil rang ona tabiatning yangilanishi, navqironlik, umid va shodlik timsoli hisoblanadi.

Bayroq uzra ko'tarinkilik ruhida ufurib turgan qizil chiziqlar vujudimizda jo'shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlari bo'lsa, tarixiy an'analarimiz, qadimgi quyosh yilnomasiga bevosita aloqador bo'lgan o'n ikki yulduz tasviri ham undan o'rinn olgan. O'zbekiston sarhadidagi qadimgi davlatlar ilmiy tafakkurimizda "nujum ilmi" taraqqiy etganligi bilan ham izohlanadi. O'n ikki yulduz tasviri o'zbek xalqi madaniyati qadimiyligi, uning komillikka, o'z tuprog'ida saodatga intilish ramzi sifatida tushuniladi.

Rivojlanish yo'lidan dadil ketib borayotgan diyorimiz istiqlolning dastlabki yillaridanoq xorijiy mamlakatlar bilan do'stona aloqani izchil yo'lga qo'ydi. Bugun har bir hamkor davlatlarda milliy bayrog'imiz yorqin nurlanayotganiga ko'zingiz tushadi. 1992 yilda o'z safiga qabul qilgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti peshtoqida hilpirayotgan yoki turli tantanalar, festivallar, sport musobaqalarida yuqoriga ko'tarilayotgan O'zbekiston Davlat bayrog'ini ko'rganda ko'ngillarni hayajon qamramay iloj yo'q. Beixtiyor ko'zlarda yosh aylanadi. Bu kindik qoni to'kilgan Vatanga, millatga bo'lgan muhabbat hissidir.

Chin ma'noda xalq tarixi, buguni va kelajagi ifodasi bo'lgan davlat ramzları ham Vatan kabi aziz va muqaddasdir. Mustaqil O'zbekiston bayrog'i ham har vaqt milliy g'urur, fidoyilik va vatanparvarlikni shakllantirishda eng muhim vosita sifatida Bayrog'imizda yaxshilik, shon-shuhurat, sadoqat, poklik, xalqning navqironligi aks etgan. Shunday ekan, faxr vaiftixor, hurmat va ehtirom ruhida qadr topgan davlat bayrog'i hamisha mustaqillik keltirgan buyuk ne'matlardan biri sifatida yuksak qadr topib boraveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida" 2005-yil 28-sentabrdagi PQ-191-sonli Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish choratadbirlari to'g'risida"gi 2002-yil 6-iyundagi 200-sonli Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 2006-yil 16-fevraldagli 25-sonli Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida" 2005-yil 28-sentabrdagi PQ-191-sonli Qarori.